

**MAKTABGACHA TA'LIMDA MASHG'ULOTLARNI  
TASHKIL ETISHDA YANGI ZAMONAVIY METODLAR  
SAMARADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI**

**Salamova Feruza Xakimbekovna**

Nukus davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lim fakulteti, Defektologiya (logopediya) ta'lim yo'naliishi o'qituvchisi.

**Rimbayeva Ozoda Bazarbayevna**

Nukus davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lim fakulteti, Defektologiya (logopediya) ta'lim yo'naliishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqlola maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ularda bo'ladijan o'zgarishlar haqida, maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga ta'lim tarbiya berish jarayonlarida olib boriladigan ishlar va darslar davomida zamonaviy metodlardan foydalanish samaradorligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim muassasasi, tarbiyachi, pedagog, metod, texnologiyalar.

Kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarga to'g'ri ta'lim va tarbiya berish jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalarining hizmati kattadir. Chunki bola ilk ta'lim va tarbiyani oilada, so'ngra maktabgacha ta'lim muassasasida oladi. Bola maktabgacha ta'lim muassasasiga brogan davrda uning hayotida ko'plab o'zgarishlar yuz beradi. Ya'ni bola o'z yaqinlari (oila a'zolari) davrasidan begonalar davrasiga o'tadi. Har kungi kattalar va bola o'rtasidagi muloqotdan tengdoshlar bilan muloqot qilishga o'tadi. Kundalik hayot tarzinинг o'zgarishi albatta bola ruhiyatiga ta'sir qiladi. Ya'ni bola injiqliklar qilishi, ovqatlanishni istamasligi, yig'loqilik va shu kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Albatta bunday paytda ota-onva va pedagog bolani to'g'ri tushunishi va unga yordam berishi lozim. Ayniqsa maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi sabr bilan bolani yangi muhitga moslashishiga ko'mak berishi, u bilan yaxshi munosabatda bo'lishi, uni qo'llab-quvvatlashi lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ko'plab asosiy boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanish ancha ez boradi. Chunki bola bu davrda ancha mustaqil gapira oladigan, ozmi ko'pmi o'z-o'ziga hizmat qilish shakllangan, bolada "men" shakllanayotgan bo'ladi. Aynan shu davrda berilgan to'g'ri ta'lim-tarbiya va to'g'ri yo'naliish bolaning kelajakda kata yutuqlarni qo'lga kiritishiga jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishiga, shaxs (*Shaxs-individning ijtimoiy sifati, ongli ravishda ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan va atrof-muhit hamda o'zini-o'zi o'zgartirishga qodir odam. M.U.Xamidova Maxsus pedagogika 147-bet*) sifatida shakllanishiga juda kata ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham tarbiyachi har bir bola ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor berishi, darslarni to'g'ri tashkillashtirishi, bolalar uchun qiziqarli va tushunarli bo'lgan metodlar (**metod-** yunoncha metods so'zidan olingan bo'lib, yo'l, axloq, usul ma'nolarini anglatadi) topishi lozim. Bir guruhda ta'lim olayotgan bolalarning xarakterlari, qiziqishlari har xil bo'ladi. Ularning barchasiga birdek yoqadigan metod topish esa tarbiyachi mahoratiga bog'liq. Tarbiyachi eng avvalo dialog orqali bolalardagi qiziqishlarni aniqlab olishi, ularning talaffuzida nuqsoni yo'qligini tekshirib ko'rishi lozim. Shundan keyin u to'g'ri metodlarni ishlab chiqishi mumkin. Bola nutqida kamchiliklar bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar tarbiyachi darslar davomida nutqni rivojlantiruvchi o'yinlar yoki metodlardan foydalanishi lozim. Chunki nutq

insonning muhim xususiyati bo'lib, u orqali inson haqida ko'plab ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin.

Tarbiyachi darslarda didaktik o'yinlardan foydalanishi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning yaxshi usuli hisoblanadi. "Didaktik o'yinlar yordamida bolalarda atrof olam haqidagi bilimlar mustahkamlanadi, lug'at boyligi boyiydi, aniqlashtiriladi va faollashtiriladi. Didaktik o'yinlar nutqiy mahorat va ko'nikmalarini mashq qilishda (ibora tuzish, so'zni o'zgartirish, hikoya to'qish va h.k) qo'llaniladi" (D.R Babayeva Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi 83-bet).

Har qanday metodni qo'llash jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanish bolani darsga ko'proq jalb qiladi. Ko'rgazmali qurollardagi rasmlar, ranglar, so'zlar umuman olganda barcha elementlar bolalarni o'ziga jalb qila olishi, ulaning kayfiyatini ko'taruvchi tusga ega bo'lishi muhimdir. Tarbiyachi o'z hatti-harakatlari orqali bolalarni o'ziga qarata olishi va ularga o'rnak bo'lishi kerak. Shundagina bolalar diqqatini darsga qaratishi va berilgan ma'lumotlarni qabul qilishi mumkin. Tarbiyachi dars davomida turli o'yinlar bilan bir qatorda Grammatik mazmundagi mashqlarni ham tashkillashtirib turishi lozim. Chunki maktabgacha yoshdagagi bolalarda nutqni rivojlantirish yetakchi masalalar qatorida turadi. Bolalar dars jarayonida so'zlarni ma'nolariga ko'ra guruhlarga ajratishni, gap tuzish uchun so'zlarni to'g'ri qo'llay olishni, qo'shimchalarni mos ravishda qo'shishni, gaplarni bir-biriga ma'no va mazmn jihatdan to'g'ri bog'lashni va asosiysi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishi va bularning barchasini maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi nazorat qilib borishi muhimdir.

Rivojlanayotgan davrda yashayotganligimiz sababli har bir soha qatori dars jarayonlarida ham turli texnika va texnologiyalardan foydalanamiz. Ya'ni hozirgi kunda ko'plab maktabgacha ta'lim muassasalarida kompyuter jihozlari, turli elektron qurilmalardan foydalaniladi. Ammo shuni ham aytib o'tish joizki har bir narsaning foydali tomonlari bilan bir qatorda zararli tomonlarini ham ko'ra olish lozim, ya'ni zamonaviy texnologiyalar bizni jismoniy quvvatimizni tejashga yordam berishi, ko'plab jarayonlarni oson va yengil bajarishi bilan bir qatorda o'zidan ozmi ko'pmi radiatsiya chiqaradi. Bu esa bolalarning rivojlanishiga albatta o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun bunday qurilmalarni bolalarga ko'p yaqinlashtirmaslik, ulardan kamroq foydalangan ma'qul. Lekin bu degani bolalarni butunlay zamonaviy qurilmalardan uzib qo'yish kerak degani emas. Kerakli vaqtida, kerakli miqdorda barchasini to'g'ri qo'llay olish, ulardan foydalanish ham zarur. Bolalarga zamonaviy metodlar orqali tillarni o'rgatish, turli o'yinlar yoki boshqa ko'plab ma'lumotlarni berish mumkin. Zamonaviy metodlarga faqatgina texnologiyalarni kiritish xato albatta. Hozirgi kunda mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan juda ko'p zamonaviy metodlar mavjud. Ular zamon talabiga mos keladigan, har bir yosh bosqichidagi bolalarga mo'ljallangan bo'lib, ulardan dars jarayonlarida foydalanish bolalarning to'g'ri ta'lim-tarbiya olishida kata ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. D.R Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi" Toshkent-2018 79-108-betlar
2. M.U Xamidova "Maxsus pedagogika" Toshkent-2018 147-bet
3. L.Muminova, D.Nazarova "Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati" Toshkent-2022